



Mavzu: Maqsud Shayxzoda lirikasi

Adabiyot

O'qituvchi: Abdukadirova M.M.




● **Reja:**

- 1. Shoirning hayot va ijod yo‘li.
- 2. M.Shayxzodaning nasriy asarlari.
- 3. M.Shayxzodaning she‘riy asarlari.

- 1908 yili Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topdi.
- Boshlang'ich va o'rta ma'lumotni Oqtoshda olgan.
- Boku Oliy pedagogika institutida sirdan o'qidi
- 1925 yildan boshlab Darband shahrida muallimlik bilan shug'ullandi.
- 1938 yildan to umrining so'nggiga qadar Nizomiy nomli Toshkent Davlat pedagogika institutining (hozirgi universitet) o'zbek klassik adabiyoti kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib



Maqsud Shayxzoda ijodi





**Butun insoniyatga tahdid
solayotgan fashizmni yo'q
qilish, hayotni, tiriklikni,
shon-u sharafni (tinchlikni)
saqlash, xalqni ruhan
yengilmaslikka, matonatga
da'vat etgan asarlari:**

- **«Kurash nechun»;**
- **«Jang va qo'shiq»;**
- **«Kapitan Gastello»;**
- **«Ko'ngil deydiki»** kabi to'plamlar.

- Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari 1929-yildan e'lon qilina boshlandi. 30-yillarda shoirning «O'n she'r», «Undoshlarim», «O'n ikki», «Loyiq soqchi»,
- «Yangi devon», «Saylov qo'shiqlari», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat» nomli to'plamlari dunyo yuzini ko'radi.

Ilk ijod

ARXIV.UZ

- **Shayxzoda mohir tarjimon sifatida
Sh. Rustaveli, V. Shekspir,
A. S. Pushkin, M.
Yu. Lermontov, Nizomiy, Fuzuliy,
Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil,
Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim
Hikmat va boshqa yozuvchilarning
asarlarini o'zbek tiliga ag'dargan.**

ARXIV.UZ


**MOHIR
TARJIMON**

**Mashhur shoir va adib Maqsud Shayxzoda
1944-yilda “*Jaloliddin Manguberdi*” tarixiy
dramasini yozgan.**



Maqsud Shayxzoda





Dastlabki she'riy to'plami - «Loyiq soqchi» (1932).

«O'n she'r» (1932), «Undoshlarim» (1933), «Uchinchi kitob» (1934), «Jumhuriyat» (1935), «O'n ikki», «Yangi devon» (1937), «Kurash nechun» (1942), «Ko'ngil deydiki...» (1943), «O'n besh yilning daftari» (1947), «Yurt she'rlari» (1948), «Olqishlarim» (1949), «Yillar va yo'llar» (1961), «She'rlar» (1964) va boshqa she'riy to'plamlari nashr etilgan. «Jaloliddin Manguberdi» (1944) va «Mirzo Ulug'bek» (1961) kabi dramatik asarlar muallifi.



Ikkinchi jahon urushi yillarida shoir butun ijodiy quvvatini, qalb haroratini dushman ustidan qozonilajak g'alabaga safarbar etdi. Urushning birinchi kunlaridanoq jang qahramonlarini ulug'lovchi, front orqasidagi kishilarning fidokorona mehnatini ifodalovchi "Kurash nechun?" (1941), "Jang va qo'shiq" (1942), "Ko'ngil deydiki..." kabi she'riy to'plamlari, "Jaloliddin Manguberdi" (1944) tarixiy dramasi va boshqa qator publitsistik asarlarini chop etdi.

Maqsud Shayxzoda urushdan keyingi yillarda tinchlik uchun kurash haqida "O'n besh yilning daftari", "Olqishlarim", "Zamon torlari", "Shu'la", "Chorak asr devoni" kabi she'riy to'plamlarini yaratdi.

Uning "O'n she'r" (1932), "Undoshlarim" (1933), "Uchinchi kitob" (1934), "Jumhuriyat" (1934) to'plamlarining nashr etilishi adabiyotga o'ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.



Otashin shoir mustabid tuzumning jabr-zulmidan chetda qolmadi. U birinchi bor 1928 yili qamoqqa olingan va sovetlarga qarshi tashviqotda ayblanib, 3 yilga O‘zbekistonga surgun qilingan edi. Ikkinchi marta esa Shayxzoda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasidan o‘chirilib, 1952 yil 22 sentyabrda qamoqqa olinadi va 25 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Shoir Stalin vafotidan keyin ozodlikka erishdi; ijodga qaytib, 1958 yili ko‘hna va navqiron Toshkent shahriga bag‘ishlangan “Toshkentnoma” lirik dostonini yozdi. 1960 yilda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yozib, unda buyuk munajjim va ma‘rifatparvar davlat arbobi Mirzo Ulug‘bek obrazini yaratdi.

- Maqsud Shayxzoda urushdan so‘nggi tinch qurilish yillari yana qaytadan nohaq qatag‘on qilinganiga qaramay, farovon hayot va bunyodkorlik zavqini tarannum etuvchi she‘rlardan iborat «O‘n besh yilning daftari», «Olgishlarim», «Zamon torlari», «Shu‘la», «Chorak asr devoni» kabi to‘plamlarini nashr ettiradi.

TARANNUM

- «O‘rtoq mulk»;
- «Tuproq va haq»;
- «Chirog‘»;
- «O‘rtoq»;
- «Meros»;
- «Ovchi qissasi»;
- «Iskandar Zulqarnayn»;
- «O‘n birlar»;
- «Jenya»;
- «Oqsoqol»;
- «Ahmadjonning hikmatlari»;
- «Uchinchi o‘g‘il»;
- «Nurmat otaning tushi».

DOSTONLAR



- Zabardast olimimiz o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotining Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, xalq og'zaki ijodining ajoyib vakili Fozil shoir, jahon adabiyotining Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A. S. Pushkin, N. A. Nekrasov, A. N. Ostrovskiy, T. G. Shevchenko, A. P. Chexov kabi namoyandalarga bag'ishlangan asarlar yaratgan.

Zabardast olim



- Shoir **1967-yilning 19-fevralida** xastalikdan vafot etadi.
- Uning vafotidan so‘ng **6** jildlik «Asarlar»i nashr etiladi.
- **2001-yili «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni** bilan taqdirlandi.



**"MIRZO
ULUG`BEK**

DRAMASI

- Asl ismi Muhammad Taragʻay.
- 22.03.1394-yil Eron Ozarbayjonining Sultoniya shahrida tugʻilgan.
- 27.10.1449-yil Samarqandda vafot etgan.
- Buyuk oʻzbek astronomi va matematigi, davlat arbobi. Shohruxning oʻgʻli, Amir Temurning nabirasi.



Mirzo
Ulugʻbek
kim?

- **Mirzo Ulugʻbek ibn Shohrux** - buyuk olim, Movarounnahr hukmdori; 56 yoshda.
- **Abdullatif Mirzo** - uning oʻgʻli; 30 yoshda.
- **Ali Qushchi** — Ulugʻbekning shogirdi va mahrami. Astronom; 35 yoshda.
- **Sakkokiy** - mashhur shoir. Ulugʻbekning doʻsti; 45 yoshda.
- **Shayxulislom Burhoniddin** - zamonaning taraqqiyparvar ulamolaridan; 65 yoshda.
- **Abbos** - Sayid Obidning oʻgʻli. Abdullatifning mahrami; 28 yoshda.
- **Abdurazzoq Samarqandiy** - mashhur tarixchi; 35 yoshda.
- **Bek Arslon** - sardor; 50 yoshda.
- **Mavloni Shamsiddin Muhammad Miskin** — Samarqand qozisi; 70 yoshda.
- **Piri Zindoniy (Hasan ohangar)** - mahbus; 80 yoshda.
- **Berdiyor** - Ulugʻbekning navkari; 35 yoshda.
- **Ota Murod** — dehqon; 67 yoshda.
- **Amir Temurning arvohi.**

Qatnashuvchilar



So`nggi vido

Sen ham biroz kechikibsan, ko`kning fonusi!
Dushman meni yengolmasdi, chiqsang oldinroq.
Ortiq tamom, g`urbatlarda daydib yurmoqdan
Shu vatanda shahid bo`lmoq oliy saodat.
Xayr sizga, sho`x yulduzlar, senga g`amli oy!
Xayr sizga, do`stlar, xayr, jami insonlar!
Xayr senga, oh Firuzam, qalbim singlisi!
Abdurazzoq, batafsil yoz bu qissalarni!
Dunyo, dunyo, bevafozan, bilaman seni.
Ammo, senga yomon farzand emas edim-ku!
Yorug` kunda, baxt ayyomi, meni yod ayla.
Bitdi nafas. Yig`lamayman, siz ham yig`lamang!



ARXIV.UZ

- Ulug`bekning hayoti va faoliyati haqida pyesa - M. SHayxzoda, «Mirzo Ulugbek» tragediyasi;
- Roman - O. Yoqubov, «Ulug`bek xazinasi»;
S. Borodin «Samarqand osmonida yulduzlar»;
- Opera - A. Kozlovskiy «Ulug`bek»;
- Poema - M. Boboev, «Ulug`bek»;
- Balet - M. Bafoev «Ulug`bek burji»;
- Film - Rejissor Latif Fayziev «Ulug`bek yulduzi», 1965.

ARXIV.UZ

E'TIROF

- 1. “Jaloliddin Manguberdi” dramasida qanday voqealar tasvirlangan?
- 2. Jaloliddin Manguberdi siymosini sahnada qaysi aktyor gavdalantirgan?
- 3. Maqsud Shayxzodaning tarjimonlik faoliyati?
- 4. “Mirzo Ulug’bek” tragediyasi qachon yozilgan va kimning qalamiga mansub
- 5. Mirzo Ulug’bek “Ziji Ko’ragoniy”ning so’zboshisida kimni “Farzandi arjumand”
- 6. “Mirzo Ulug’bek” dramasi asosida yaratilgan kinofilm va uning rejissori?
- 7. Piri Zindoniyning asl ismi?
- 8. “Mirzo Ulug’bek”tragediyasida “O’g’illardan yalchimagan, benasib padar, o’z shogirdin o’g’il deya topar tasalli” deb kim aytadi?
- 9. “Mirzo Ulug’bek” tragediyasida Ulug’bek kimni “Chotqol shunqori” deb ataydi?
- 10. Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarining sakkizinchi majlisi kimga bag’ishlangan?

Bilimingizni sinang!



Uyga vazifa: Maqsud
Shayxzodaning
she'rlaridan yodlash.